

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 212 (1001), 2023-yil 13-oktabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



DOLZARB MAVZU



HAYOT UCHUN, OZIQ-OVQAT UCHUN



Bir odamning to'yib ovqat yemasligi, kunlik iste'mol ehtiyojlarini qondirish imkoniyatining yo'qligi nafaqat jamiyat yoki mamlakat, balki sayyoramiz oldidagi dolzarb muammodir. Afsuski, so'nggi yillarda global iqlim o'zgarishlari, aholi sonining ortishi va dunyoda kechayotgan keskin vaziyatlar sabab jahon oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid kuchayib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda 2 milliarddan ortiq odam xavfsiz va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan. 2020-yilda pandemiya sabab ochlikda kun kechirayotgan odamlar soni 690 million kishiga yetgan.

Bu xavfning eng katta ko'rinishlaridan biri esa tabiiy resurslar, xususan, suv masalasi bilan bog'liq. Qurg'oqchilik, cho'llanish, ichimlik suv tanqisligi, allaqachon, ko'plab davlatlarda global muammoga aylandi. BMT ma'lumotiga ko'ra, hozir dunyo miqyosida 2 milliard kishi toza ichimlik suvdan foydalana olmaydi, 3,6 milliard inson xavfsiz sanitariya sharoitiga ega emas.

Ammo ichimlik suvga bo'lgan talab kun sayin ortmoqda. Mutaxassislarning taxmin qilishicha, so'nggi 40 yil ichida suv iste'moli har yili qariyb 1 foiz ko'payadi va o'sishda davom etadi. 2030-yilga borib, aholining toza va oqova suv bilan ta'minlanishini qo'llab-quvvatlash uchun BMTga har yili 600 milliarddan 1 trillion dollargacha mablag' zarur bo'ladi.

Davomi 3-betda

BIZ VA DUNYO

MDH SAMMITI: KO'P TOMONLAMA AMALIY HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LIDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-oktabr kuni Bishkek shahrida bo'lib o'tadigan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etadi.



Hamdo'stlikka a'zo davlatlar rahbarlari ko'p tomonlama hamkorlikning holati va rivojlanish istiqbollari hamda xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qiladilar.

O'zbekiston MDH tashkil topganidan beri savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, transport-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, teng huquqli va o'zaro manfaatli asosda iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash tarafdori bo'lib kelmoqda.

Hamdo'stlik doirasida O'zbekiston uning nizomi (Davlat rahbarlari, Hukumat rahbarlari, Tashqi ishlar vazirlari va Iqtisodiy kengashlar, Parlamentlararo Assambleya) hamda tarmoq tuzilmalari faoliyatida faol ishtirok etadi. Xususan, "Yo'l xaritalari"ni amalga oshirish doirasida mamlakatimiz 24 ta sohaviy hamkor-

lik organiga qo'shildi, natijada MDHning 86 ta organidan 65 ta tarmoq tuzilmasi faoliyatida O'zbekiston ishtirok etmoqda, ularning maqsadli vazifalari milliy manfaatlariga javob beradi va O'zbekiston tomonining qiziqishini tasdiqlaydi.

2017-yildan boshlab O'zbekiston Hamdo'stlik doirasidagi faoliyatini sezilarli darajada faollashtirdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2022-yillarda MDH Davlat rahbarlari kengashi yig'ilishlaridagi ishtiroki yakunlari bo'yicha imzolangan hujjatlar va O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan 100 dan ortiq tashabbusning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida "Yo'l xaritalari" qabul qilingan.

Davomi 2-betda

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

Ko'hna va navqiron Samarqand zamini shu kunlarda yana bir shukuhli tadbirga mezbonlik qilmoqda. Prezidentimiz o'tgan yili 13-oktabrda Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan yuqori darajadagi xalqaro forum — Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengashning VI sammitida global muammolar xususida to'xtalib, turli yoshdagi insonlar o'rtasida bir-birini yaxshiroq tushunishga da'vat etadigan, farzandlarimizning eng dolzarb muammolariga birgalikda yechim izlashga ko'maklashuvchi yangi format — avlodlar muloqotini yo'lga qo'yish taklifini bildirgan edi.

ISHONCH VA DO'STLIK global muammolar yechimi yoshlarni birlashtiradi



Shu tashabbus asosida yoshlar siyosati sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengashga a'zo va kuza-tuvchi mamlakatlar yoshlari o'rtasida o'zaro do'stlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida Samarqand shahrida yoshlar kengashining VI yig'ilishi, Yosh liderlar forumi va uning doirasida "Avlodlar muloqoti"ning birinchi uchrashuvi tashkil etildi.

BMT, O'zbekiston Yoshlar siyosati va sport hamda Tashqi ishlar vazirliklari, shuningdek, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengash (OHCHK) o'tkazayotgan forumdan asosiy maqsad davrimizning dolzarb muammolarini yoshlar manfaatini nuqtayi nazaridan o'rganish,

radikallashtirish, ilm-fan, ta'lim va mehnat huquqlarini, atrof-muhit va inson salomatligini muhofaza etish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini asrab-avaylash masalalariga alohida e'tibor qaratishdir. Shuningdek, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, salohiyatini yuksaltirish, g'oya va tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha fikr almashish, bu borada tavsiyalar ishlab chiqish uchun turli davlatlar yoshlarini birlashtirish, mamlakatlar doirasida yoshlar siyosati sohasida keyingi hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilash ham forum kun tartibidan o'rin olgan.

Davomi 5-betda

MUNOSABAT

YANGI O'ZBEKISTONNING JOZIBADOR BRENDI

Inson borki, dunyo ko'rgisi, turfa xalqlar madaniyati, urf-odat, yashash tarzi bilan tanishgisi keladi. Qiziquvchanlik, yangilikka intilish, sayr-u sayohat odamzod tiynati, fitrati-yu siyratiga singib ketgan. Shu ma'noda, turizm barcha zamon va makonlarda eng serdaromad, kamxarj hamda istiqbolli soha sifatida taraqqiy etib kelmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ham sayyohlik tarmog'ini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining lokomotivi o'laroq ko'rilyapti. Sayyohlarni jalb qilish va ular uchun zarur infratuzilmani yaratish masalasiga davlat siyosati darajasida qaralyapti. Keyingi yetti yilda sohaga oid o'nlab farmon va qarorlar qabul qilingani, davlatimiz rahbari raisligida qator video-selektor yig'ilishlari, uchrashuvlar tashkil etilgani so'zimiz isboti.

Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan video-selektor yig'ilishida ham turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to'liq ishga solish, "Yashil makon" umummilliy loyihasining kuzgi mav-



sumini tashkil etish masalalari keng muhokama qilindi. Mutasaddirlarga zarur topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to'liq ishga solish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil davom ettirish masalalari bir yig'ilishda muhokama qilangani bejiz emas. Chunki sayr-u sayohat, asyir an'analar, sirli madaniyatlar, go'zal tabiat, sof ekologiya, maroqli hordiq chiqarish tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq hamda biri boshqasini taqozo qiladi. Ularning birisiz ikkinchisi tugul bo'lmaydi, o'z jozibadorligini yo'qotadi.

Shu bois, davlatimiz rahbari bu tushunchalarga yaklit nuqtayi nazar bilan qarab, ularga doir barcha masalalarni kompleks hal etish, rivojlantirish bo'yicha ustuvor chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Davomi 2-betda

TAQQOS VA TAHLIL

"MUSIQA SADOLARI OSTIDA" ISHLASH SHASHTI

CHIQUINDILARNI YIG'ISH VA QAYTA ISHLASHNING BUGUNGI HOLATIGA BIR NAZAR

Har kuni shunday manzara kuzatiladi: ko'p qavatli uylardagi xonadonlardan turli xildagi chiqindilar salafan xaltada olib chiqilib, saralanmay bir konteynerga tashlanadi. Bu yerga kelgan maxsus mashina konteynerlardagi chiqindini ortadi va navbatdagisi tomon yo'l oladi. Hovlilar joylashgan mahallalarda esa, bu manzara sal boshqacharoq. Maxsus mashinalar haftasiga ikki-uch marta ko'chalar oralab yurganda, qattiq signal chalib, kelganini bildiradi. Har kim o'z hovlisidagi chiqindini olib chiqib, unga to'kadi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining yaqinda e'lon qilgan xabariga ko'ra, chiqindi tashuvchi mashinalarning ertalab baland ovoza signal chalib kelishi aholining e'tirozlariga sabab bo'lgan. Shu bois, chiqindilarni signal usulida emas, mumtoz va yengil musiqa sadolari ostida olib chiqish bo'yicha Toshkent, Qashqadaryo

va Buxoro viloyatlarida tajriba o'tkazilmoqda. Har bir hududga bittadan maxsus mashina ajratilib, aholiga uning kelgani haqida musiqa orqali xabar berilmoqda. Agar yangi usul sinovdan muvaffaqiyatli o'tsa, keyinchalik butun respublika bo'yicha joriy qilinishi mumkin.

Davomi 4-betda

YURTNING OBOD GO'SHALARI

SHAHAR BILAN BO'YLASHAYOTGAN QISHLOQ

Rishtondagi Pandigon qishlog'i tuman markazidan ancha olisda joylashgan. Mahalladagi 715 xonadonda 4 mingdan ziyod aholi yashaydi. Asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan andarmon qishloqda "Obod mahalla", "Obod xonadon" va "Obod ko'cha" mezonlari doirasida boshlangan obodlik, bunyodkorlik ishlari yangicha hayot tarzini olib kirmoqda.

Bu bejiz emas. Keyingi yillarda chekka va olis hududlarni obod va fayzli go'shaga aylantirish, aholi hayot tarzi uchun muhim infratuzilma tarmoqlari qurish, ta'mirlash yo'lidagi islohotlar ko'lami kengaydi. Qishloqning zamonaviy xonadonlari, ko'cha va mahallalarini ko'rgan kishi bu qadar o'zgarib, o'ziga xos me'moriy yechimlarga ega bo'lgan eski qishloqning yangi qiyofasidan hayratga tushib, havasi ortadi.

Tor, o'nqir-cho'nqir ko'chalarga shag'al yotqizish, asfaltlash, elektr, ichimlik va oqova suv tarmoqlari tortish, pastqam, paxsa devorli uylarni yangilash, aholi xonadonlarida kundalik hayot uchun kerakli shart-sharoit yaratish, sanitariya-gigiyena holatlarini yaxshilashga qaratilgan xayriy amallar ommalashib bormoqda. Boshqacha aytganda, qishloqning har bir kuni o'zgarish va yangiliklarga boy.

Davomi 2-betda

BIZ VA DUNYO

MDH SAMMITI: KO'P TOMONLAMA AMALIY HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LIDA

Boshlanishi 1-betda

2020-yilda O'zbekiston MDHga raislik qildi. Raislik davomida COVID-19 pandemiyasi cheklavlariga qaramay, 50 dan ortiq tadbirlar, jumladan, Davlat rahbarlari kengashi, Hukumat rahbarlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Iqtisodiy kengash va boshqalarning onlayn majlislari o'tkazildi. Yil davomida O'zbekiston BMT, YXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasidagi turli tadbirlarda MDH vakili sifatida ishtirok etdi. BMT Bosh Assambleyasining 2020-yil noyabr oyida BMT va MDH o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi rezolyutsiyasi tashabbusi ilgari surilib, ushbu hujjatning bir ovozdan qabul qilinishi ta'minlandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan Hamdo'stlik sammitlari doirasida ilgari surilgan tashabbuslar pandemiyaga ta'siri sharoitida iqtisodiyotni, savdo va hamkorlik aloqalarini tezroq tiklash, "yashil" va soddallashtirilgan yo'laklar amaliyotini keng joriy etish, o'zaro elektron savdoni rivojlantirish bo'yicha yagona platforma yaratish, samarali hududlar va transkontinental transport yo'llarini tizimini ishga tushirish, qo'shma innovatsion dasturlarni faol ilgari surish va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, MDH Iqtisodiy kengashi faoliyatini kuchaytirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va "yashil" kun tartibini ilgari surish, bioxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish, mehnat bozorini yaxshilash, o'zaro sayyohlik oqimini tiklash va madaniy-gumanitar almashuvni kengaytirish, terrorizm va



giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashda hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan edi.

"Shuni mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman, mavjud xatarlarga qaramasdan, biz MDH doirasida barcha yo'nalishlar bo'yicha ijobiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga erishmoqdamiz, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 14-oktabrda Ostona shahrida bo'lib o'tgan Hamdo'stlik sammitidagi nutqida. — Xususan, O'zbekistonning Hamdo'stlik davlatlari bilan tovar aylanmasi, o'tgan yil yakuniga ko'ra, 35 foizga oshdi, joriy yil boshidan buyon esa yana uchdan bir barobar o'sdi. Mashinasozlik, energetika, kimyo, farmatsevtika, to'qimachilik va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda. Birgina so'nggi oylarning o'zida MDH mamlakatlari

ridagi sheriklarimiz bilan 800 dan ortiq yangi korxonalar ishga tushirildi".

2022-yilda O'zbekistonda ilk bor Hamdo'stlik ijodiy va ilmiy ziyolilari forumi (12-13-dekabr, Toshkent) va MDH Parlamentlararo Assambleyasining sessiyasi (27-29-oktabr, Samarqand) bo'lib o'tdi. Tadbirlarda Hamdo'stlikka a'zo mamlakatlardan 700 dan ortiq ilmiy va ijodkor ziyolilar vakillari, deputatlar, olimlar va ekspertlar, hamkor xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston tomoni tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Sanitariya-epidemiologiyaga oid favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Bitim qabul qilindi.

2023-yil 14-aprel kuni Samarqand shahrida MDH Tashqi ishlar vazirlari kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Uchrashuv yakunida ishtirokchi dav-

latlarning ko'p qirrali hamkorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan 9 ta hujjat qabul qilindi.

Jumladan, Samarqand shahrini 2024-yilda MDHning "Madaniyat poytaxti", Toshkent shahrini esa "Yoshlar poytaxti", deb e'lon qilish bo'yicha hujjatlar loyihalari muhokama qilindi va tasdiqlandi.

8-iyun kuni Sochi shahrida bo'lib o'tgan MDH Hukumat rahbarlari kengashining yig'ilishida O'zbekiston tomonining taklifi bilan MDH sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish konsepsiyasi va 2030-yilgacha bo'lgan davrda Hamdo'stlikning sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui qabul qilindi. Shuningdek, 2012-yilning noyabr oyidan buyon davom etgan muzokaralar O'zbekistonning faol ishtiroki natijasida yakuniga yetgan "Xizmatlar, muassasalar, faoliyat va investitsiyalar erkin savdosi to'g'risida"gi shartnoma ham imzolandi.

Muxtasar aytganda, Qirg'iziston poytaxtida bo'lib o'tadigan MDH yetakchilarining navbatdagi uchrashuvi asosiy natijalarni sarhisob qilish va Hamdo'stlik doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning keyingi rejalarini belgilab olish imkonini beradi. Davlat rahbarlari o'zaro savdo hajmini oshirish, transport va investitsiya sohalariidagi hamkorlik, sanoat kooperatsiyasi, elektron tijorat, shubhasiz, Hamdo'stlikning barcha mamlakatlari uzoq muddatli manfaatlariga javob beradigan, MDH salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan va ilgari erishilgan kelishuvlarni muhokama qiladi hamda ularni amalga oshirish bo'yicha navbatdagi qadamlarni belgilaydi.

"Dunyo" AA

MUNOSABAT

YANGI O'ZBEKISTONNING JOZIBADOR BRENDI



Ozodbek NAZARBEKOV,
O'zbekiston Respublikasi
madaniyat vaziri

Boshlanishi 1-betda

Tan olish kerak: Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan, dunyo ahlini o'ziga jalb etuvchi tarixiy obidalari, bebaho osori atiqalari, jannatmonand tabiati, xalqining jozibakor madaniyati, boqiy qadriyatlar bo'la turib, O'zbekistonda turizm sohasida yillar davomida qoloqlik kuzatildi. Bunga qator omillar sabab edi. Jumladan, zamonaviy infrazuzilmaning yo'qligi, xizmat ko'rsatish tizimining abgor holati, eng asosiy, mamlakatda hukm surgan "yopiqlik" siyosati, chet elliklar uchun viza olish masalasining haddan tashqari murakkablashtirilgani, jozibador imijning shakllantirilmagani xorijliklarning ko'hna va navqiron diyorimizga kelishi uchun katta qiziqishi hamda ishtiyoqi bo'lishiga qaramay, ularning bu istak va niyatlari ro'yobiga to'siq bo'lib kelardi.

O'zbekistonda keza boshlagan yangilanish nafari, bahoriy ilqlik bu boradagi muz kabi qotib qolgan yondashuvlarni butunlay eritib yubordi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi bilan O'zbekiston

Ushbu ezgu maqsadga erishish uchun sayyohlik infratuzilmasini, transport tarmog'ini yanada rivojlantirish, jumladan, dunyo mamlakatlari shaharlaridan to'g'ridan-to'g'ri aviyaqatnovlarni ko'paytirishdan tashqari xalqimizning jilvokor madaniyatini, jozibali san'atini, o'lmas qadriyatlarini namoyish etishni yanada kengaytirish zarur.

Binobarin, xalqimizning madaniy o'ziga xosligi, urf-odatlar, an'analari ko'plab o'zga elu elatlar uchun go'yo ochilmagan sirli sandiq. Undagi duru javohirlar ohanrabosi jahonning turli mintaqalaridagi odamlarni o'ziga tortib turadi. Bunga yurtimizda xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan maqom, baxshichilik, raqs, kino san'ati festivallari hamda anjumanlarida ishtirok etayotgan xorijlik sayyohlarning ko'zlaridagi hayajonni, havas va hayratni ko'rib, guvoh bo'lib kelaymiz.

Shu bois, yig'ilishda hududlarda turistlarni jalb etadigan madaniy tadbirlarni yanada ko'paytirish topshirig'i berildi. Endilikda viloyatlar hokimliklari Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda har oyda kamida bitta yurtimiz jozibadorligini oshirishga xizmat qiladigan yirik madaniy tadbir o'tkazadi.

Tuman va shaharlarda mavjud sayilgoh, xiyobon, istirohat bog'lari, teatr va madaniyat uylari imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotgani tanqid qilinib, hududlar rahbarlariga bu joylarda musiqlik, ko'ngilochar, mar'ifiy tadbirlarni muntazam o'tkazib borish topshirig'i berildi.

Jahon amaliyotida mamlakatlarning turizm salohiyatini targ'ib qilishda kino, serial, hujjatli filmlardan keng foydalanilayotgani bois, soha mutasaddilarga yurtimiz tarixi, madaniyati, bebaho osori atiqalari haqida badiiy, musiqiy va hujjatli filmlar yaratish vazifasi yuklangan ekan, uni sidqidildan, davlatimiz rahbari o'ylaganidek bajarish uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

YURTNING OBOD GO'SHALARI

SHAHAR BILAN BO'YLASHAYOTGAN QISHLOQ

Boshlanishi 1-betda

— Bu yerda umumiy qiymati 14,7 milliard so'mdan ortiq bunyodkorlik, obodonchilik ishlari bajarildi, — deydi tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov. — Mahalladagi 715 xonadon xatlovdan o'tkazilib, 1089 oilaning turmush tarzi o'rganib chiqildi. Mavjud muammolar, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilandi, mas'ullar, mutasaddilar birkiriladi. Ehtiyojmand oilalar moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda. Natijada eski binolar o'rni zamonaviy inshootlar, tor va chang ko'chalar keng, ravon, asfalt yo'llar bilan almashmoqda. Odamlar yashash joyini obod qilish uchun qo'lidan kelgan ko'makni berishni maqsad qilib, ko'tarinki kayfiyat bilan xayrli ishlarga qo'l urmoqda.

"Pandigon" mahalla fuqarolar yig'ini katta qurilish maydoniga aylangan. Qudratli texnika vositalari yordamida bunyodkorlik va tozalik ishlari samarali tashkil etilib, mahalla kundan-kun chiroy ochmoqda. Tegishli tashkilot va korxonalar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan rejaqa ko'ra, hududdagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi va oilaviy shifokorlik punkti ta'mirdan chiqarildi. 12,6 kilometr elektr tarmog'ini modernizatsiya qilish, 11,5 kilometr yo'lni ta'mirlash, 7,4 kilometr ichimlik suv tarmog'ini tortish, 481 tayanch ustun, 3 transformator o'rnatish, 2,5 kilometr piyodalar yo'lga barpo etish ishlari bir zum bo'lsa-da, to'xtagan yo'q.



Aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida fuqarolarga imtiyozli kreditlar, yoshlarga subsidiyalarni ajratish, mahalladagi ishsiz xotin-qizlar uchun yangi tikuvchilik sexi qurilishi jadal olib borilmoqda.

— Ihsiz 88 kishining bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratganimiz, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Abror Sobirov. — Shu kunga qadar 31 ishsiz haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi, 25 nafariga subsidiya asosida imtiyozli kredit olish uchun tavsiyalar berdik. Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 24 tashabbuskor fuqaroga 575 million so'm kredit olishga ko'maklashdik. Bu hududlarni yanada obod qilish, savdo, xizmat ko'rsatish va yangi ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyatini kengaytirish imkonini bermogda.

Abrorjon Akbarov shu mahallada yashaydi. Uch farzandi bor. Oila ijtimoiy himoyaga muhtoj. Uy-joyi ta'mirlab, uni sozlashga oilaning iqtisodiy imkoniyati yetmaydi. Xonadonda ta'mirlash, qayta qurish ishlari bajarilib, bir oila kundalik hayot tarzi uchun kerakli bo'lgan sharoitlar yaratib berildi.

— Ezgu maqsad yo'lida hamijhat bo'lgan yaxshilar mehridan hamisha kuch-quvvat olib kelamiz, — deydi xonadon sohibasi Nodiraxon Akbarova. — Kuz-qish mavsumiga hozirlik ko'rish, uy-joylarimizni ta'mirlab, yashash uchun qulay shart-sharoit yaratib berilganidan juda xursand bo'ldik. Uymiz har jihatdan obod xonadonga aylandi. Biz kabi ehtiyojmand oilalarga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikdan kuch-quvvat olaymiz.

Xalqimiz azaldan hashar yo'li bilan bunyodkorlik qilgan, mashaqqatli yumushlar bajargan. Bu qadim an'ana "Pandigon" mahalla fuqarolar yig'ida ham ish bermogda. Tashabbuskor harsarchilar qurilish-bunyodkorlik hamda tozalash-obodonlashtirish ishlariga baholi qudrat hissa qo'shmoqda.

— Ko'chalarimizni, xonadonlarni obodonlashtirish yo'lida boshlangan ishlarni ko'rib, qo'l qovushirib o'tirish yarashmaydi, — deydi mehnat faxriysi O'ktamjon Komilov. — Farzand va nabiralarga bosh bo'lib, ko'pchilikning ishiga qarashyapmiz. Bir og'iz shirin so'zimiz bilan quruvchi yoshlarni qo'llab-quvvatlashga harakat qilyapmiz. Esimni taniganimdan buyon qish-

log'imizda bu qadar qurilish, obodonchilik ishlari bajarilmagan. Hammasi juda chiroyli, obod, fayzli bo'lib bormogda. Qishlog'imiz shahar bilan bo'ylashmoqda. Yurtimiz tinch, bunday xayrli ishlarga bosh bo'lganlar omon bo'lsin.

Mahalla hududida ishlab chiqarish korxonalari yo'q. Lekin tomorqadan foydalanishda o'ziga xos tajriba to'plangan. Mahallaning o'sish nuqtasi ko'katchilik. Ayni kunda 400 dan ortiq xonadon tomorqasida ko'kat yetishtirish yo'lga qo'yilgan.

— Tomorqadan uch marta hosil olamiz, — deydi Sharifjon Siddiqov. — Tez kunlarda kuzgi ko'katlarni bozorga chiqaramiz. Ichki bozordan tashqari xorijga ham mahsulot yetkazib beryapmiz. Bu daromadimiz salmog'ini oshirmogda. Xonadonimizdagi tinchlik, totuvlik, to'kin dasturxon ana shu mehnat va izlanishlarimiz samarasi.

Hududdagi oilaviy shifoxonani ta'mirlash, bemor va shifokorlar uchun kerakli shart-sharoit yaratish alohida e'tiborga olingan. Tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan bepul tibbiy ko'rik tashkil qilindi. Malakali shifokorlar tomonidan 500 dan ziyod fuqaro ko'rikdan o'tkazildi. Terapevt, nevrolog, kardiolog, bolalar, ayollar shifokori kabi o'nlab mutaxassislar kun davomida yetti yoshdan yetmish yoshgacha bemorlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazdi, aniq tashxislar qo'yib, muolajalar belgiladi. Shuningdek, uyda bo'lgan keksalar va bemorlardan xabar olindi, tibbiy yordam, maslahatlar berildi.

— Uymizga shifokorlar kelib, barcha tekshiruvlarni shu yerda o'tkazib, sog'lig'im bilan bog'liq ayrim muammolar borligi uchun nogironlar aravachasi sovg'a qilishdi, — deydi Nishonxon aya Ahmedova. — Shifoxonada yotib davolanishim uchun yo'llanma berishdi.

Pandigon bugun obod go'shaga, ko'rkam maskanga aylanib, namunaviy xonadon va ko'chalar soni ortib bormogda. Odamlarning ertangi kunga ishonchi mustahkam. Chunki obodlik bor joyda, fayzu baraka, taraqqiyot bo'ladi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



tashqi dunyoga ochildi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv kuchaydi. Ko'plab xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun yurtimizga viza olish tartibi bekor qilindi yoki soddallashtirildi. Inson huquqlarini ta'minlash borasida olib borilgan tarixiy o'zgarishlar, ochiqlik, oshkorlik, shaffoflik kengaygani, erkinlik, tinchlik va xotirjamlik barqarorligi O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeiini yanada mustahkamladi. Bu, o'z navbatida, yurtimizga keladigan chet ellik sayyohlar bir necha barobar ortishiga sabab bo'ldi.

Turizm infratuzilmasi tobora kengaymogda. Zamon andozalariga mos mehmon o'rnlari, sayohat joylari va yo'nalishlari ko'payapti. Yurtimizning turli hududlarida o'tkazilayotgan har xil xalqaro festivallar, madaniy forumlar, anjumanlar jahon hamjamiyatining e'tiborini tortib, serquyosh diyorimizga oshuhtaligini kuchaytirmogda.

Yuqorida ta'kidlaganimiz videoselektor yig'ilishida ham ayni yo'nalishdagi ishlarni yanada kengaytirish masalasi alohida ahamiyat qaratildi. Turistlarni ko'paytirish bo'yicha yangi imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi.

Avvalo, qo'shni davlatlardan, Rossiya va Xitoydan sayyohlarni jalb qilish uchun qulay imkoniyat borligi qayd etildi. Xususan, yurtimiz viloyatlari Xitoy provinsiyalari bilan hamkorlik o'rnatgan. Bundan foydalanib, hududlarimiz turistik salohiyatini targ'ib qilib, Xitoydan yiliga 1 million sayyohni jalb qilish mumkinligi aytiladi.

16-20-oktabr kunlari Samarqand shahrida ilk bor Jahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi yig'ilishi bo'lib o'tadi. Unga 128 ta mamlakatdan 1 mingdan ziyod ishtirokchi, shu jumladan, 79 nafar turizm vaziri, 24 nafar vazir o'rinbosari kelishi kutilmogda.

— Bu tadbir mamlakatimiz turizm salohiyatini ko'rsatish uchun juda katta imkoniyat, — dedi davlatimiz rahbari. Shu bois, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan soha vakillarini jalb qilib, har bir hududning tarixi, tabiati, madaniyati, ziyoratgohlari, ovqatlari, sayyohlik maskanlari va marshrutlarini namoyish etish, loyihalar taklif qilib, kelishuvlarga erishish zarurligi ta'kidlandi. Joylardagi sayilgoh va istirohat bog'lari faoliyatini jonlantirish, tematik turizm ko'chalarini tashkil qilish, badiiy jamoalarni libos va anjomlar bilan ta'minlash masalalari bo'yicha ham tegishli topshiriqlar berildi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, Prezidentimiz raisligida o'tgan videoselektor yig'ilishi nafaqat turizm sohasi, balki madaniyat jabhasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim turki bo'ldi. Zero, madaniy tadbirlarni yuqori sayiyada tashkil etish orqali butun dunyo ahliga xalqimizning yuksak dahosini, serjilva qirralarini, hech bir millatdan kam bo'lmagan ma'naviy darajasini, umuminsoniy qiyofasini ko'rsata olamiz. Shu orqali jahonda jonajon O'zbekistonimizning sayyohlik salohiyati oshib, ijobiy imiji yanada mustahkamlanib boraveradi.

DOLZARB MAVZU

SUV HAYOT UCHUN, OZIQ-OVQAT UCHUN



Sohibjon TOPILDIYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Bu raqamlar holatni chuqurroq tahlil qilish uchun keltirilgan-da, aslida, muammoning naqadar dolzarb ekanini insoniyat yaxshi anglab turibdi. Ya'ni tiriklik, quvvat, farovonlik, oziq-ovqat asosi bo'lgan suv tobora kamayib borayotgani va uni asrash zarurligini yaqqol tushunyapmiz. Buning uchun faol harakatlari, dunyo davlatlarining birgalikdagi yirik loyihalari amalga oshirilayotgani, ushbu yo'nalishga katta mablag'lar ajratilayotgani boisi ham shunda. Har yili 150 dan ortiq mamlakatda keng nishonlanadigan 16-oktabr — Jahon oziq-ovqat kunining bu yili shiori "Suv — hayot uchun, suv — oziq-ovqat uchun", deb nomlangani bejiz emas. BMT tomonidan qabul qilingan ushbu sanada dunyo e'tibori bu gal sayyoramiz aholisi e'tiborini yashash uchun eng zarur bo'lgan suvni asrash, oziq-ovqat



xavfsizligiga tahdid solayotgan suv tanqisligi, qurg'oqchilik kabi muammolarga qarshi kurashishda birdamlikni kuchaytirishga qaratilmoqda.

Xavf ortmoqda

Bu masala Markaziy Osiyo davlatlarida ham ijobiy emasligi ayon. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda mintaqada mamlakatlari, xususan, O'zbekistonda suv kam bo'lgan

gan yillar tez-tez takrorlanmoqda. Agar 2000-yilga qadar har 6-8 yilda suv taqchilligi kuzatilgan bo'lsa, oxirgi vaqtlarda bu holat har 3-4 yilda takrorlanayapti. Buning ta'sirida 2018-yili O'zbekiston bo'yicha umumiy suv tanqisligi 3 milliard kub metrni tashkil etdi.

Kishini hushyorlikka chorlaydigan jihat shundaki, 2030-yilga borib, dehqonchilik mavsumida suv tanqisligi 7 milliard kub metr, 2050-yilga qadar esa 13-15 milliard kub metrga yetish ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, havo haroratining ko'tarilishi natijasida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish me'yori 2030-yilga borib, 5 foiz, 2050-yilda 7-10 foiz oshishi taxmin qilinmoqda. Bularning hammasi oldimizga suv resurslariga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish, undan foydalanishda tejankor texnologiyalarni jadal qo'llash, sug'orishda intensiv usullarni tatbiq qilish, eng muhimi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va cho'llanishining oldini olish kabi muhim vazifalarni qo'yimoqda.

Iqlimning keskin o'zgarishi sababli Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarini boshqarish va xavfsizligini ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etib kelayapti. So'nggi yillarda qo'shni davlatlar bilan bu boradagi hamkorlikning ortishi, yangi loyihalar bo'yicha imzolananayotgan kelishuvlar ko'lami shundan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari shu yil 15-sentabr kuni Dushanbeda o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida ham Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish muammolari uzoq muddatga mo'ljallangan yangi qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etayotganini ta'kidladi. Ekspertlarning bu boradagi hisob-kitoblari-yu, olingan tahlil natijalari ham u qadar ijobiy emas. Ular Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib, suv resurslariga bo'lgan

tashabbuslar, yangi loyihalar talab qiladi. Nafaqat mintaqamiz, balki sayyoramizning keyingi taraqqiyoti hech shubhasiz, suv omiliga bog'liq.

Shu bois, bugun bizga barchani to'liq safarbar qiladigan, hamma uchun birdek maqbul, manfaatli va qo'shni davlatlar bilan kelishuv asosida hamkorlikda to'g'ri foydalanadigan suv siyosati zarur. Bu borada normativ-huquqiy bazani takomillatish-tirish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Ayni shu maqsadda qator farmon, qarorlar qabul qilinayapti. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham suv resurslaridan sa-



marali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish, suv xo'jaligi obyektlarida elektr energiyasi iste'molini kamaytirish, suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarish kabi qator vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Senati majlisida suv masalasi bilan bog'liq "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi. Ta'kidlanishicha, bugungi kunda suv xo'jaligi tizimida 73 ta suv ombori va sel-suv ombori, 1 ming 688 ta nasos stansiyasi, 49 ta GES va boshqa obyektlar mavjud. Suv xo'jaligi obyektlarining aksariyat qismidan 40 yildan ortiq foydalanilmoqda. Bu esa ularni o'z vaqtida ta'mirlash-tiklash va rekonstruksiya qilish hamda zamonaviy jihozlash, texnik soz holatda saqlash hamda ularning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta'minlashni talab qilmoqda.

Joriy yil 18-aprel kuni suv xo'jaligi sohasiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan masalalar, ajratilgan katta sarmoyalar sohani tubdan innovatsion texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishni nazarda tutadi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasida ham suvdan foydalanish va uni tejash bo'yicha dolzarb chora-tadbirlar belgilangan. Sug'orishdagi yo'qotishlarni kamaytirish, ajratilayotgan byudjet mablag'laridan samarali foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Suv nimaga sarflanyapti?

Sir emas, mamlakatimizda suv eng ko'p talab qilinadigan soha agrar tarmoq bo'lib, tabiiy resursning 86 foizi unga yo'naltiriladi. Yurtimiz qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan ana shu suv hajmining 20 foizi ichki, 80 foizi esa tashqi manbalardan keladi. Xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda chuchuk suvdan sohalar bo'yicha foydalanish ko'rsatkichlari dunyoda qabul qilingan taqsimot me'yorida deyarli farq qilmaydi. Unga ko'ra, suvning 70 foizdan ko'prog'i qishloq xo'jaligida, 15 foizdan ortig'i sanoatda, 10 foizdan sal

ekin yerlari an'anaviy tarash usulida sug'oriladi. Zamonaviy, tejankor texnologiyalar esa ana shu istirofgarchilikning oldini oladi.

O'zbekistonda yaqin kelajakda suv tanqisligi 7 milliard kub metr, 2050-yillarga borib, 12-13 milliard kub metr bo'lishi kutilayotganini inobatga olsak, bu holatda suvni tejashning ahamiyati yanada ortadi. Shu bois, yurtimiz bo'yab tadqiqotlar o'tkazilib, bir qator mezonlar asosida suvdan foydalanish samaradorligi indeksi hisoblab chiqildi. Jarayonda qaysi viloyat suv resurslaridan samarali foydalanayotganini aniqlash maqsadida hududlarda o'rta 1 gektar yerni sug'orish uchun sarflangan suv miqdori, o'rta 1 kub metr suv hisobiga yetishtirilgan mahsulot, hududlarda suv tejovchi texnologiyalar qo'llanilgan maydonlar qamrovi kabi samaradorlikni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Natijalar esa aksariyat hududlar, xususan, Navoiy (28 foiz), Andijon (23,6 foiz), Jizzax (21,9 foiz) viloyatlarida suvni tejovchi texnologiyalar qo'llanilgan maydonlar kengayib borayotganini ko'rsatdi. 2021-yilda Buxoro (16,1 foiz) va Xorazm (23,1 foiz) viloyatlarida qamrov darajasi avvalgi yildagiga qaraganda 2,3-4,3 marotaba ortgan.

Tejovchi — zamonaviy texnologiyalar

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, suv eng ko'p talab etiladigan soha qishloq xo'jaligi bo'lgani bois, tejankor texnologiyalarni ayni shu tarmoqda kengroq qo'llashga e'tibor qaratilayapti. Suv xo'jaligi vazirligi prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib, suv tejovchi va kam xarajali texnologiyalarni joriy etish har ming gektarga 2000 tani, tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish esa 600 tani tashkil etadi. Natijada 10 milliard kub metr suv tejaladi hamda 370 ming gektar yer maydonining suv ta'minoti yaxshilanadi.

O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasida ham qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha yetkazish ko'zda tutilgan. Bu boradagi ishlar davlatimiz rahbarining 2020-yil 11-dekabrda "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tezlashtirib yubordi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 18-aprel kuni suv xo'jaligi sohasiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda to'rtta asosiy masalaga e'tibor qaratildi. Ular suv yo'qotilishi, nasos stansiyalarining energiya iste'moli ko'pligi, suv zaxiralari kamligi va, albatta, suv tejovchi va kam xarajali texnologiyalarni joriy qilish. Xususan, suv tejovchi agrotexnologiyalarning keng o'qilinishi, yopiq sug'orish tizimlarini joriy etish, ularni muqobil energiya bilan ishlovchi nasos stansiyalari yordamida amaliyotga kiritish ilgari surildi.

Ayni paytda yopiq sug'orish tizimlari tajriba sifatida Jizzax viloyati Paxtakor tumanida qo'llanilmoqda va bu istiqbolli loyihani suv yetkazib berish muammoli bo'lgan



Qashqadaryo, Namangan va Sirdaryo viloyatlariga ham tatbiq qilish maqsadga muvofiq. Tizimga ilmiy-institutsional yondashgan holda, loyiha xarajatlarini qisqartirish, joriy qilish bo'yicha ikki yillik dastur ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Oqova suvlar yetishmovchiligi sharoitida ekin yerlarini suv-nasos stansiyalari yordamida sug'orish yaxshi, ammo ma'naviy eskirgan agregatlar elektr energiyasini juda ko'p iste'mol qiladi. Yer osti suvlari ham cheklanganki, ularga hisob-kitobsiz munosabatda bo'lish oqibatida uning sathi tushib bormoqda. Boz ustiga, mamlakatimizdagi suv xo'jaligi tashkilotlari tasarrufida 4 mingta sug'orish qudug'i mavjud bo'lib, bitta quduq o'rta 30 gektar maydonga xizmat ko'rsatadi, ularning har biriga yiliga 40-50 million so'mgacha xarajat qilinadi. Sug'orishda quduq suvini odatdagidek ishlatish oqibatida yer osti suvi borgan sari kamaymoqda. Shuning uchun quduq suvlari iste'molchilarini suv tejovchi texnologiyalar va quyosh panellaridan foydalanishga to'liq o'tkazish zarur.

Bu borada davlatimiz rahbari Janubiy Koreya tajribasiga tayanib, Suv xo'jaligi vazirligiga ushbu mamlakatning 7 million dollarlik granti hisobidan 61 ta suv xo'jaligi obyektida suv sarfini onlayn kuzatish imkonini beruvchi "Aqli suv" tizimini joriy etish vazifasini yuklagan edi. Aqli apparatlarni 2021-2023-yillarda 420 ta obyektda tatbiq etish bo'yicha ishlar samarali amalga oshirib kelinmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu yo'nalishda ajratilayotgan mablag'lar, berilayotgan imtiyozlar ko'lami keng. Ammo suv taqchilligi faqat qishloq xo'jaligiga xavf solmasligi ham rost. Bu muammo bevosita mintaqada gidrologiyasi va atrof-muhit landshaftlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni yashil maydonlar kamayadi, yer osti suvlari pastga tushib ketadi. Demakki, yer osti quduqlaridan suv olishda ham muammolar vujudga keladi. Bu bevosita boshqa sohalarda rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Umuman, diyorumiz Sirdaryo va Amudaryoning quyi qismida joylashgani, bizga qo'shnilarimizdan ko'ra, kamroq suv yetib kelishi oldimizga ushbu tabiiy resursdan yanada tejab foydalanish vazifasini qo'yadi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami ortib borayotgani boisi ham shunda. Zero, suv muammosi va oziq-ovqat xavfsizligi faqat bugunning muammosi emas. Kelajakda masala yanada kattalashmasligi uchun barchamiz bugun birgalikda harakat qilishimiz lozim.

HUDUDLAR HAYOTI



Gap Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi "Pichoqchi" mahalla fuqarolar yig'ini haqida boryapti. Mahalla hududida joylashgan "Pichoqchi Dry Fruits" mas'uliyati cheklangan jamiyatida tayyorlanayotgan mahsulotlar bugun dunyoning 15 dan ortiq davlatiga jo'natilmoqda.

Bu yerda tadbirkor Tolibxon Abdullajilov eksportbop mahsulot — yong'oqning yangi navlarini yetishtirish va qadoqlashni yo'lga qo'ydi. Yaqinda uning bevosita tashabbusi bilan ushbu mahallada logistika markazi hamda yong'oq va dukkakli ekinlar savdosi uchun dehqon bozori ish boshladi.

Ayni paytda bu yerga nafaqat Samarqand viloyati tumanlaridan, balki qo'shni viloyatlardan ham yong'oq keltirilmoqda. Korxonada yong'oq mag'zi ichki va tashqi bozorda sotish uchun saralanadi hamda qadoqlanadi. Mahsulotlar Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston, Hindiston, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Iroq, Eron, Afg'oniston, Belarus hamda Yevropaga eksport qilinadi.

— Tadbirkorlikni 30 yil avval, mustaqillikning ilk yillarida boshlaganman, — deydi korxonaga rahbari Tolibxon Abdullajilov. — U paytlar qiyin bo'lgan. Esimda, bir qop yaxshi tozalangan yong'oq mag'zini Samarqand shahridagi Siyob dehqon bozoriga olib kelgandim. Yuqori sifati tufayli barcha xaridorlar bir zumda sotib olishdi. Keyin menda bu biznes bilan shug'ullanish g'oyasi paydo bo'ldi. 2017-yilda "Pichoqchi Dry Fruits" MCHJni tashkil qildim. Ona qishloq'imiz nomini butun dunyoga tanitishni orzu qilardim. Mamlakatimizda tadbirkorlar uchun yaratilgan imtiyoz va qulayliklar tufayli men ham ezgu maqsadimga bosqichma-bosqich erishmoqdaman. "Pichoqchi" brendi ostida qadoqlangan yong'oq bugun-

gi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida yaxshi tanilgan.

Ayni paytda korxonada boshqa mevasabzavotlarni ham qadoqlash, quritish va yuklash sexlari mavjud bo'lib, ularda 50 dan ortiq doimiy va yuzga yaqin mavsumiy ishchi mehnat qilmoqda. Ishchi va xizmatchilarning o'rta 4 oylik maoshi 2,5 million so'mdan 4,5 million so'mgacha boryapti.

Korxonaga shu mahallaning o'zidan 135 ta xonadon birlashtirilgan. MCHJ faoliyatini kengaytirish hisobiga yaqin atrofdagi qishloqlar aholisini ham ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Xotin-qizlar va yoshlarning mehnati, asosan, yong'oq mag'zini saralash va qadoqlashdan iborat. Ishchilarning aytishicha, ular kuniga 80-100 ming so'm ish haqi oladi. Bundan tashqari, kuniga ikki mahal bepul ovqat va transport bilan ta'minlangan.

Korxonaga tashkil etilganidan 2 yil o'tib, 2019-yilda Turkiyadan "Chandler" navli yong'oq ko'chatlari olib kelindi, 30 gektarda intensiv bog' barpo etildi. Bu yil ular birinchi bor meva berdi. T.Abdullajilov mahalliy iqlim sharoiti juda qulay bo'lgani uchun Oqdaryo



tumanini yong'oq yetishtirish uchun ixtisoslashtirish loyihasi ham tayyorladi.

Tumanda bu sohada raqobat muhiti yaratilgani e'tiborga molik. Tolib Abdullajilovning bevosita ko'magi bilan yangi tashkil etilgan "Pichoqchi eksport savdo" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "Quruq

mevalar tayyorlash", "To'rtaygir quruq mevalar" korxonalari ham shu kabi ishlar bilan shug'ullanmoqda.

— Boshida rahbarligimda ishlagan bu korxonalar — raqobatchilarning oyoqqa tushiga o'zim yordam berdim, — deydi T.Abdullajilov. — Axir, sog'lom raqobat bor joyda,

albatta, rivojlanish bo'ladi. Yong'oqning boshqa mevalardan ustun jihati shundaki, uni qushlar yeb ketolmaydi, kasallikka kamroq chalindi. Kelajakdagi rejalarimiz katta. Yong'oqning eng yaxshi navlari sifati va mahsuldorligini oshirish ustida ishlash zarur. Shu maqsadlarda tadbirkorlarga yer ajratiladi, faoliyatimiz kengayib, jahon bozorida raqobatbardoshligimiz yuksaladi edi.

Suhbatdoshimizning aytishicha, "Pichoqchi Dry Fruits" mas'uliyati cheklangan jamiyatining eksport salohiyati joriy yil oxiriga qadar 2 million AQSH dollariga yetadi.

Tadbirkorning to'ng'ich o'g'li boshqaradigan o'quv markazi ham tashkil etilgan. Bu yerda qishloq yoshlari chet tillarni, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, kimyo, tarix fanlarini, uy bekalari esa kashtachilik, milliy taomlar tayyorlash sir-asrorlarini o'rganmoqda.

El-yurt taraqqiyoti yo'lida qilingan mashaqqatli mehnat bezet ketmadi. Yaqinda Tolibxon Abdullajilov "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Yormamat RUSTAMOV,
jurnalist



Abdurauf QORJOV,
iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

E'tiborga molik sinov. Qani edi mazkur tajriba chiqindi bilan bog'liq barcha jaryondagi ishlar "musiqa sadolari ostida" amalga oshirishga yo'l ochsa?! Chunki chiqindini yig'ishning o'zi bir necha bosqichni talab qiladi. Har birining o'ziga xos muammolari bor.

Mutaxassislar qayd etishicha, chiqitga chiqqan shisha idish — bir million yil, plastik idishlar — 450 yil, aliuminiy konserva — 80-200 yil, kuchlanish batareyalari — 100 yil, neylon tuch — 30-40 yil, charm-poyabzal — 25-40 yil moyabnida chiriydi va hokazo.

Xonadondan chiqqan ana shunday chiqindilar dastlab mavze va mahallalardagi yig'ish shoxobchalarida to'planadi. Toshkent shahrining o'zida ularning soni mingdan ortiq. "Maxsustrans" davlat unitar korxonasi ma'lumotlariga ko'ra, shoxobchalarining 72 foizi ushbu korxonaga, qolgan xususiy sektorga qaraydi.

Shoxobchalarning aksariyati devor bilan o'ralgan kichik maydoncha va uychaga ega, xizmat ko'rsatadigan xodim bor, suv va elektr quvvati bilan ta'minlangan. Har birida chiqit solinadigan to'rtta yoki besh



konteyner mavjud. Chunki odamlar chiqindini turlarga ajratib tashlashi kerak.

Lekin hamma muammo ana shu jaryondan boshlanadi. Aholi chiqitning turiga qaramay, aralash-quralash qilib konteynerga tashlab ketadi. Faqat nonnigina alohida ajratishi mumkin. Konteyner to'lishi bilan xizmat ko'rsatuvchi xodim uni yerga to'kib, baklashkani bir tomonga, qog'ozlarni boshqa tomonga ajratib oladi. Qolganini yana konteynerga soladi. Uni har kuni maxsus mashina zarur manzilga olib ketadi.

Daromadimiz baklashka va qog'ozdan, — deydi shoxobchalardan birida ishlayotgan xizmatkorlardan biri. — "Maxsustrans" bilan shartnoma tuzganmiz, lekin undan oladigan maosh bilan kun kechirib bo'lmaydi. Baklashkaning kilosini hozir 3 ming 200 so'mdan sotaymiz. Qog'ozniki keyingi paytda juda tushib ketdi. Kilosi — 800 so'm. Ularni to'plab, xususiy firmalarga sotamiz, "Maxsustrans"ga ham topshirish mumkin. Lekin narxi past. Nonlarni esa, uyda qo'y-mol boqayotganlar olib ketadi...

Shoxobchada yig'ilgan chiqitlar mashinalarga oltirgach, qayta yuklash stansiyalariga olib boriladi. Ular Toshkent shahridagi Yunusobod, Yakkasaroy va Yashnobod tumanlarida joylashgan. Bu stansiyalarda tashishni maqbullashtirish maqsadida ulkan konteynerlarga zichlab joylashtiriladi va Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi poligoniga olib ketiladi.

Davlatimiz rahbari joriy yil fevralda poytaxt faollari bilan o'tkazgan uchrashuvda bugungi kunda Toshkent shahrida hosil bo'layotgan chiqindilarning bor-yo'g'i 18 foizi qayta ishlanayotgani, chiqindilarni saralab yig'ish bo'yicha qilinayotgan ishlar ham mul'ato qoniqarsizligi, "Maxsustrans" DUK faoliyatini isloh qilish, uning moliyaviy ahvolini yaxshilash zarurligini ta'kidlab, mutasaddilar zimmasiga shahar chiqindisini qayta ishlashni yil yakuniga qadar 50 foizga yetkazish vazifasi yuklatilgan edi.

Toshkent shahrining o'zidan har kuni 2 ming 300 tonnaga yaqin chiqindi olib chiqiladi. Ohangorandagi poligoniga

respublikaning boshqa hududlariga qaraganda ancha katta hajmda chiqindi olib kelinsa ham, ish jarayoni juda oddiy. Chiqindi to'kiladi, mexanizatorlar buldozerlar orqali ularni surib, yoyib chiqadi, ustidan tuproq bilan yopilib, rekultivatsiya qilinadi. Keyin navbatdagi maydonga o'tiladi.

— Hozirgi kunda poligonni tartibga solish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, — deydi Toshkent shahar "Maxsustrans" DUK bosh inspektori Ismoil Sa'dullayev. — Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi kredit mablag'lari yo'naltirilgan holda, uning yonida 30 gektar yer ajratilib, yangi, xalqaro talablarga javob beradigan poligon qurilayapti. Bu boradagi ishlar tez orada nihoyasiga yetadi. Mavjud poligonlardan farqli ravishda, uning ichi tuproq qatlami va yer osti suvlariga chiqindilardan ajraladigan zararli moddalarni o'tkazmaydigan himoya plyonkalari bilan qoplangan. Chiqindilardan hosil bo'ladigan metan gazini qayta ishlab, elektr energiyasi o'ldirgan uskunalar o'rnatiladi. Mavjud poligon rekultivatsiya qilinib, unga o'rnatiladigan quvurlar orqali hosil bo'lgan metan gazini va elektr energiyasini tortib olish ham rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi "Toshkent shahrida qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish" loyihasi doirasida 2018-2021-yillarda 249 ta maxsus texnika, 17 ming 550 ta chiqindi yig'ish konteyneri xarid qilingan. 2022-yilda Mirrobd va Bektemir tumanlaridagi avtoparklar qayta qurilgan, Yunusobod va Yakkasaroy tumanlaridagi chiqindilarni qayta yuklash stansiyalari ta'mirlangan va Germaniyada



ishlab chiqarilgan yangi zichlash texnologiyasi hamda boshqa uskunalari bilan jihozlangan.

Loyihaning umumiy qiymati 92,25 million dollarga teng. Uni amalga oshirish jarayonida iqtisod qilinyotgan 7,28 million dollar evaziga 85 ta maxsus chiqindi tashuvchi texnika, 4 ming 500 ta chiqindi yig'ish va 180 ta tashish konteyneri uchun tenderlar e'lon qilingan.

Loyihani amalga oshirish muddatiga ko'ra, aslida mazkur ishlar 2018-yilning oxiriga kelib bajarilishi va kredit mablag'lari qaytarilishi kerak edi. Lekin belgilangan muddatdan besh yil o'tib boryaptiki, hali-hanuz oxiriga yetkazilgani yo'q.

Buning sabablari "Maxsustrans" DUKning mazkur loyihaga doir 2023-yilning yarim yilligi bo'yicha hisobotida ko'rsatib o'tilgan. Unda qayd etilishicha, hukumatning 2018-yil 17-dekabrda taklifiga binoan, Osiyo taraqqiyot banki qurilish ishlarining oxiriga yetkazilmaganini inobatga olgan holda, kredit mablag'larini yopish yuzasidan belgilangan muddatni 2021-yil 30-iyungacha qadar uzaytirgan. Biroq mazkur vaqt mobaynida loyihaning muhim yo'nalishi bo'lgan sanitariya poligonining qurilishi va mavjudini yopilishi bo'yicha shartnoma imzolangan tufayli OTB tomonidan bu muddatni yana ikki yilga, ya'ni joriy yil 31-dekabr qadar uzaytirilishi ma'qullangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, xuddi shunday holatni boshqa hududlarda ham ko'rish mumkin. Ya'ni qanday Samarqand shahridagi Yoshlar markazida "Maroqand obod" davlat unitar korxonasi tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbirida Fransiya Taraqqiyot agentligi ishtirokida amalga oshirilayotgan "Samarqand shahrida qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvinu modernizatsiya qilish" loyihasingin bajarilishi keng jamoatchilik vakillari bilan muhokama qilindi.

Mazkur loyihaning qiymati 37,167 million yevro bo'lib, 2018-yil avgust oyidan amalga oshirishga kirishilgan.

— Fransiya Taraqqiyot agentligi bilan kelishilgan holda, koronavirus pandemiyasi



yasi davrini inobatga olib, loyihani amalga oshirish muddati bir necha marta o'zgartirildi, — deydi loyihani amalga oshirish guruhi direktori Nurbek Saidov. — Hamkorlarimiz bilan o'zaro kelishuvga asosan, loyihani bajarish 2021-yil 28-iyundan 2024-yil 30-iyungacha qadar uzaytirildi. O'tgan yili agentlik tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ko'rib chiqilib, 2 bosqichli xalqaro tender jarayoniga ruxsat berilgan edi. Ayni paytda tender yakunlanib, qurilish boshlanishi kutilmoqda.

Modernizatsiya ishlariga Fransiya Taraqqiyot agentligining 23,53 million, Yevropa Ittifoqining 8 million yevrolik granti hamda boshqa hamkorlarning 8,6 million yevrolik kredit mablag'lari sarflanishi ko'zda tutilgan. Hozirga qadar 10,5 million yevrodan ziyod mablag' o'zlashtirilgan. Jumladan, 80 ta, Xishrav massivi hududidagi chiqindi poligoni uchun 5 ta yig'uvchi, ortuvchi va tozalovchi maxsus texnika xarid qilingan.

Tadbirida korxonaga mutasaddilari jamoatchilikka poligon va saralash kompleksi uchun yana o'nega yaqin maxsus texnikalar xaridi, Samarqand shahrida 15 ta chiqindi to'plash shoxobchasi uchun yer ajratish, markaziy chiqindixonada ularni ko'mish (rekultivatsiya) ishlarini kechikib borayotganiga izoh bergan.

Avlodlar oldidagi qarz

Dunyoda qattiq maishiy chiqindilar miqdori aholi jon boshiga har yili 1 foizga ortib boryapti. O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy rivojlanish, aholi turmush darajasi yaxshilinishi natijasida o'sish 2 foizni tashkil etib, yillik hosil bo'layotgan maishiy chiqindilar miqdori 7 million tonnadan oshgan.

Lekin ularni yig'ish, saralash, qayta ishlash va utilitatsiya qilish ahvoli qoniqarli emas. Mamlakatimizda maishiy chiqindilarni olib chiqish qamrovi 90 foizga yetgan bo'lsa-da (2017-yilda atigi 25 foiz edi), qayta ishlash darajasi Andijonda 45 foiz, Buxoroda 43 foiz, Navoiy va Namanganda 36 foizni tashkil etgani holda, Qoraqalpog'iston 10 foiz, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlari 20 foiz bilan orqada qolgan. 781 ta mahallada chiqindilarni olib chiqish masalasi 30 yildan buyon hal etilmagan. Aholining bu sohadagi xizmatlar bo'yicha debitor qarzdorligi ham ko'p. Tibbiyot va ta'lim muassasalari, bozorlar uchun 19 ming dona chiqindi konteynerlariga ehtiyoj bor.

Prezidentimiz o'tgan yil fevralda chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida ana shunday raqamlarni keltir



rar ekan. "Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'yab ish tutmasak, ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun biz tabiatga mehr va e'tibor berishimiz, u bilan uyg'un bo'lib yashashimiz kerak," degan edi.

Davlatimiz rahbari 2022-yilning o'zida maishiy chiqindi to'plash qamrovini 95 foizga, qayta ishlash hajmini 40 foizga, xususiy sektor ulushini 50 foizga yetkazish vazifasini qo'ydi. Shu maqsadda import qilinadigan maxsus texnika, butlovchi va ehtiyot qismlar bo'xona bo'jidan 3 yilga ozod etiladigan bo'ldi. Saralash va qayta ishlash texnikasi xaridi uchun 5 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi, qayta moliyalashtirish stavkasidan oshgan qismi qoplanishi belgilab berildi.

Mazkur yig'ilish bo'lib o'tganiga ham bir yarim yildan ko'proq vaqt o'tdi. Bu vaqt mobaynida soha faoliyatini rivojlantirishga doir bir qator hujjatlar ham e'lon qilindi. Xo'sh, belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida qanday ishlar amalga oshirildi? Yana qanday masalalarni hal etish ustida ish ketyapti?

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz hududlarida to'plangan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi 2018-yilda 9 foiz, 2021-yilda 24,2 foiz, 2022-yilda 32,4 foizga yetdi. Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi o'ng 2022-yilda 27,4 foizni, Qashqadaryo viloyatida 32, Farg'ona viloyatida 39,9, Toshkent viloyatida 18,8 foizni tashkil etgan.

Vazirlik tomonidan Osiyo taraqqiyot banki loyihasi doirasida aholiga sanitar tozalash xizmatini yaxshilash maqsadida 300 ta chiqindi tashiydigan maxsus texnika sotib olinib, hududlarga yetkazib berildi. Natijada maishiy chiqindilarni olib chiqish mahalla hududlari bo'yicha qamrov darajasi 86 foizni tashkil etmoqda. Hozirgi kunga qadar respublikaning to'qqizta markaziy hududida (Andijon, Buxoro, Gulistan, Jizzax, Navoiy, Nukus, Termiz, Urganch, Qashqariy) maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilitatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish klasterlari tashkil etilgan.

Aholiga sanitar tozalash xizmatini yo'lga qo'yishni yaxshilash uchun mamlakatimizda 67 ta davlat-xususiy sheriklik xizmat tizimi joriy etilib, texnikalar 10 yil muddatga ijaraga berildi. Xususiy sheriklar tomonidan 104 milliard so'm investitsiya kiritish evaziga 154 ta maxsus texnika, 1 ming 936 ta chiqindi konteyneri, 13 ta chiqindilarni saralash va qayta ishlash uskunasini xarid

qilindi, uchta chiqindilarni qayta yuklash stansiyasi, 98 ta chiqindi to'plash shoxobchasi qurilib, 2 ming 300 dan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

Misol uchun, Jizzax viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni saralab, qayta ishlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi 24 ta tadbirkorlik subyekti mavjud. Ulardan biri "Elita lyuks plast" MCHJ aholidan turli xildagi plastmassa chiqindilarni sotib olib, ularidan turli hajmdagi polietilen quvurlar ishlab chiqaradi. Bunda saralashdan tashqari, barcha amaliyot avtomatik rejimda bajarilayapti. 2022-yilda korxonada tomonidan 380 tonna ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash natijasida 324 tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarildi. Ayni kunda korxonada 15 nafar fuqaro doimiy ish bilan band.

Ma'lumki, 1 tonna qog'ozni qayta ishlash orqali 700 ta daraxtni saqlab qolish mumkin. Tadbirkor Komil Dostonov ana shunday yo'l tutayapti. Zamonaviy texnologiyalar yordamida chiqindiga chiqqan qog'ozlarni qayta ishlab, karton mahsulotlari tayyorlamoqda. O'tgan yili 2 ming 640 tonna mahsulot ishlab chiqarilgan.

Agar Jizzax viloyatida joriy yil boshida chiqindilarni qayta ishlash qamrovi 26 foizni tashkil etgan bo'lsa, yil yakuniga qadar bu ko'rsatkichni 42,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Prezidentimizning shu yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va yalqolati davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori va uning asosida qabul qilingan qarorda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash sohasida O'zbekistonda "nol chiqindi" (zero waste)



tamoyili joriy etilishi, barcha poligonlarda chiqindilarni to'liq qayta ishlash va quydirish bosqichma-bosqich erishish rejalashtirilgan. Binobarin, davlatimiz rahbarining 2019-yil 17-apreldagi "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilarni bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida ham bu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan edi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi mutaxassislarining qayd etishicha, jahon tajribasiga tayangan holda, "Nol chiqindi" tamoyiliga rioya qilish bo'yicha yangi tartib va mexanizmlarni joriy etish vazifasi oldimzda turibdi. Jumladan, chiqindilarni maishiy turlariga qarab, alohida-alohida to'plash va olib chiqib ketish, yangidan hosil bo'layotgan chiqindilarni poligonlarga yo'naltirmasdan, maksimal darajada qayta ishlash yoki quydirish, mazkur usul bilan muqobil energiya resurslariga erishish, tadbirkorlar, investorlar bilan yaqindan hamkorlik qilish ishlarini olib borilmoqda.

Bugungi kunda qattiq maishiy chiqindi poligonlari 196 ta, shundan foydalanishdagi 163 tani tashkil etadi. Qattiq maishiy chiqindilar bilan to'lgan poligonlar 23 ta. Taassufki, hozirgi kunda ularning biron-tasi zamonaviy talablarga javob bermaydi.

O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasiga muvofiq, chiqindi poligonlarining holatini optimalashtirish rejalashtirilgan. Unga ko'ra, poligonlarning soni qisqartiriladi, 59 tasi qoldiriladi. Xalqaro moliyaviy manbalar mablag'ini jalb etgan holda, zamonaviy poligonlarni barpo etish, qolganlarini me'yorga mu-

vofiq yopish va rekultivatsiya qilish ko'zda tutilgan. Ya'ni chiqindi uyumlarining ustidan tuproq tortiladi, daraxtlar ekilib, ko'klamzorlashtiriladi hamda davlat yer fondiga qaytariladi.

Biroq ayni paytda yurtimizda qattiq maishiy chiqindilarni yoqish va ulardan muqobil energiya olish bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar mavjud emas. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-noyabrda qarori asosida Koreya Respublikasining "Sejin G&E Co., Ltd" kompaniyasi tomonidan Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi "Ohangaron" va Parkent tumanidagi "Maydonto" qattiq maishiy chiqindi poligonlarida hosil bo'ladigan chiqindi gazini qayta ishlash hisobiga elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida chiqindi gazidan (biogaz) umumiy ishlab chiqarish quvvati kamida 16 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqaradigan 12 ta generator va yordamchi uskunalari o'rnatish ko'zda tutilgan.

Bizning ham aybimiz bormi?

Guvohi bo'lganingizdek, qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish va qayta ishlashda oldinga siljish bor. Lekin bu muammolar o'z vaqtida va sifatli hal etilyapti, degani emas. Yana bir muhim masala borki, unda o'zgarishlar umuman ko'zga tashlanmayotgandek tuyuladi. Bu — aholining ekologik madaniyatini oshirish masalasi.

— Mahallalar, ko'cha va xiyobonlarda, umuman, odamlar gavjum joylarda yotgan qog'oz, plastik idish, sigareta qoldiqlarini ko'rish oddiy holga aylanib borayotgani achinarli, — deydi Toshkent shahridagi Qoratosh mahallasida yashovchi Idris Alqarov. — Kuni kecha ko'p qavatli uylar yonidagi maydonchada bir guruh yoshlarning ichigan plastik idishlar, yeyilgan qandolat mahsulotlarning qog'oz o'ramlarini tashlab ketayotganini ko'rib, "Ey, baraka topgurlar,



bu ishlarining noto'g'ri", deb tanbeh berdim. Sal narida turgan chiqindi qutlari tashlab ketilgan bo'lmaydiki, dedim. Ular parvo ham qilmay, ustimdan kulganday jo'nab ketadi. Bo'lmasa, shu yoshlar ta'lim muassasalarida tashil oladi. Holbuki, ularga ma'rifat soatlari o'tiladi, "poklik iymondandir", deb tushuntiriladi. Nega unda yoshlarimiz chiqindi tashlab yashayotgan joyimizni ifloslantirishi, toza, orasta bo'lmagan joydan esa qut-baraka ketishini tushunmayapti?!

Buning sababini saytlarning birida shunday satrlarga ko'zim tushganda angladim. Unda shunday yozilgan: "Poytaxtimizdagi har bir chiqindi yig'ish shoxobchasidan kuniga 2,5-3 kilogrammdan, umuman olganda, uch tonnaga yaqin non chiqindiga tashlab ketiladi. Xodimlarimiz chiqindiga tashlangan nonlarni, oziq-ovqat mahsulotlarini mol-qo'y boqadigan tadbirkorlarga berishadi. Yildan-yilga chiqindixonalarga non va non mahsulotlarini tashlab holatlari ko'payib bormoqda".

Bundan ortiq uvul bo'lmasa kerak. Shunday kezda ochlik azobini ko'rgan otabobalarimizning yerga tushgan non uvog'ini ko'zlariga surtib, qo'lga olgani, bizlarga ham uni e'ozlash haqida bergan o'g'itlari yodga keladi. Biz shunday tarbiya topdik. Lekin endi o'zimiz farzand-u nevaralarga shunday tarbiya beryapmizmi? Gap ana shunda. Aslida, mahalla-ko'ya chiqindilar yotishi, non uvul bo'layotganida biz katalarning aybimiz katta ekan-da!

Xulosa har kimning o'ziga havali. Lekin shunisi aniqki, bu boradagi kundalik manzara yana takrorlanaveradi. Ko'p qavatli uylardagi xonadonlardan turli xildagi chiqindilar salafan xaltada olib chiqilib, saralanmay bir konteynerga tashlanaveradi...

“YOSHLAR HAMKORLIGI BARQAROR, SAMARALI IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASH, SHUNINGDEK, MAMLAKATLAR O'RTASIDAGI SHERIKLIK VA DO'STONA MUNOSABATLARNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING ENG MUHIM OMILLI. SHU JIHATDAN MAZKUR FORUM GLOBAL MUAMMOLARNI HAL QILISH UCHUN SA'Y-HARAKATLARNI BIRLASHTIRADIGAN, YUKSAK TASHABBUS VA G'OYALARGA ZAMIN HOZIRLAYDIGAN MULOQOT MAYDONI VAZIFASINI O'TAYOTIR.

tajribasini muhokama qilishdan iborat, — deydi Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa'dullayev. — Tadbirida OHCHK bosh kotibi qatnashib, yoshlar bilan mu-

Yoshlar siyosati va sport vazirligi "Besh tashabbus" olimpiadasida g'olib bo'lgan yoshlarning mahallasi uchun 700 dan ortiq sport obyekti qurib berdi. Tasavvur qiling, oddiy o'g'il-qiz mahallasidagi tengqurlardan jamoa tuzib, madaniyat, san'at, sport, kitobxonlik yoki axborot texnologiyalari yo'nalishida g'olib bo'lsa, davlat alohida sport obyekti qurib beryapti. Bu sa'y-harakatlar o'z navbatida yoshlarning terrorizm va radikalizm g'oyalarga yaqinlashmasligini ta'minlaydi. Chunki o'zining imkoniyati, bilimi qadrlanishi, g'oyasini ro'yobga chiqishiga ishongan va bunga sharoiti bor inson yot fikr va g'oyalar bilan yashashga intilmaydi.

Mamlakatimizda "Uch avlod" muloqoti yo'lga qo'yilgan. Biz mazkur amaliyotni ham O'zbekiston tajribasi sifatida ilgari surdik. Bu tajribani mehmonlar qizg'in qabul qildi. Chunki boshqa mamlakatlarning bu jarayonga qiziqishi, intilishi va munosabati tubdan o'zgardi. Ular ham avlodlar o'rtasidagi muloqot kerakligini e'tirof etyapti. Shuningdek, Osiyoda ta'lim, ekologiya, kreativ sanoat, iqtisodiyot, kasb-hunarga o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari ham muhokama qilinayapti.

Yig'ilish doirasida Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini kengashining Yosh liderlar forumi, O'zbekiston — Qozog'iston yoshlari II kongressi, O'zbekiston — Rossiya yoshlar forumi va O'zbekiston — Ozarbayjon yoshlari I forumi bo'lib o'tadi.

Anjumanga Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini kengashiga a'zo va kuzatuvchi davlatlardan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul davlat idoralari, yoshlar jamoat tashkilotlari, shuningdek, xalqaro ekspertlar, turli soha va kasblarning taniqli vakillaridan iborat 70 dan ortiq ishtirokchi taklif etilgan.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

ISHONCH VA DO'STLIK global muammolar yechimi yoshlarni birlashtiradi

Boshlanishi 1-betda

— Xalqaro munosabatlarga bir yoqlama yondashish tendensiyasi tarixda qoldi. Bugungi vaziyat dunyoda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun barcha global va mintaqaviy ishtirokchilarni jalb etishni talab qiladi. Shu jihatdan Osiyo asosiy siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar maydoniga aylanoqda, — dedi Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengash bosh kotibi Kayrat Saribay. — Kengashimiz oddiydan murakkabgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tmoqda, ya'ni 28 a'zo davlat o'rtasida o'zaro ishonch o'rnatishdan hamkorlik ko'prigi barpo etishgacha izchil harakatlanish tamoyiliga amal qiladi. Hozirgi zamon geosiyosiy kontekstida bu mamlakatlarning barchasi qit'alar xavfsizligini mustahkamlashni barqaror taraqqiyotning fundamental sharti sifatida e'tirof etadi. Osiyoda hanuz hal qilinmagan ziddiyatlar va eski bahslar mavjudligiga qaramay, hamkorlikning yangi shakli va mexanizmlarini izlashga intilish kuchayib bormoqda. Bugungi forum ana shu ezgu maqsad va intilishlarning amaldagi ifodasidir.

Yoshlar hamkorligi barqaror, samarali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi sheriklik va do'stona munosabatlarni saqlash va rivojlantirishning eng muhim omili. Shu jihatdan mazkur forum global muammolarni hal qilish uchun sa'y-harakatlarni birlashtiradigan, yuksak tashabbus va g'oyalarga zamin hozirlaydigan muloqot maydoni vazifasini o'tayotir.

— Yoshlar kengashining mazkur yig'ilishi oltinchi marotaba o'tkazilmoqda, —

dedi yoshlar siyosati va sport vaziri Adham Ikromov. — Bu davrda biz yoshlarga oid qo'shma loyihalarni amalga oshirish borasidagi tajribamizni boyitdik, mamlakatlarimiz yoshlari o'rtasidagi aloqa va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash masalalarida salmoqli natijalarga erishdik. Qilingan ishlarni davom ettirish va faoliyat ko'lamini kengaytirish maqsadida Yoshlar kengashi doirasida navqiron avlod vakillarining xalqaro hamkorligini mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha

yondashuvlarni shakllantirish forumining asosiy yo'nalishlaridan. Umumiy sa'y-harakatlar, sheriklik va ishonchni mustahkamlash orqali ezgu maqsad — mamlakatlarimiz tinchligi, barqarorligi va farovonligini ta'minlashga erishish mumkinligi anjumanda alohida ta'kidlandi.

— Globallashuv jarayoni butun dunyoni o'ziga xos talablariga bo'yundiryapti. Bu ham har bir davlat aholisi yoki mintaqaxalqlarining o'zaro hamkorlikka intilishini taqozo etmoqda, — dedi "Zarafshon"



2024-yilga mo'ljallangan harakat rejasini ishlab chiqishni taklif qilamiz.

Davlat organlari va jamoat tashkilotlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha musharakatlarini oshirish, yig'it-qizlar o'rtasida umumiy insonparvarlik intilishlari va muammolarni hal etishga doir

gazetasi bosh muharriri, senator Farmon Toshev. — Bu, avvalo, azaliy munosabatlarni ravnaq toptiradi, globallashuv jarayonida iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hamkorlikni ta'minlaydi. Davlatimiz rahbari bu borada tashabbuskor bo'lgani bizni ruhlantiradi. Eng avvalo, qo'shnilar bilan,



turkiy tili davlatlar va jahon hamjamiyati bilan munosabat o'rnatish tashabbusi bugungi forumda yana bir bor namoyon bo'ldi. Samarqandda bunday xalqaro tadbirlar ko'p o'tkazilyapti. Bu tarixan bir-biriga aloqador va mentaliteti ham o'zaro yaqin bo'lgan xalqlarning birdamligini ko'rsatadi. Bugun yoshlarning ayni shu jihatga xayrixohligi bizni quvontiradi. Ularning yuzidagi ishonch, intilishi, tajriba almashishi, mamlakatining yutuqi haqida bir-biriga gapirib berishi har bir yigit-qizning chinakam vatanparvar va iqtidor egasi ekanini ko'rsatib turibdi.

Forumda yoshlarni yot g'oyalari ta'siriga tushib qolishdan asrash borasidagi tajribalar almashildi. Mas'ullar bu borada O'zbekiston tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

— OHCHK yoshlar kengashining asosiy maqsadi Osiyoda yoshlarning radikalizm g'oyalari ta'siriga tushishining oldini olish va Osiyo davlatlarining bu boradagi

loqot qilish davomida Osiyo yoshlarining radikalizm, terrorizmga qarshi dadil fikr-mulohazalari, muammoni yechishga qaratilgan dasturlarini ko'rib, ko'p taklif va tavsiyalar bildirdi. Bu bo'yicha biz ham tajribamiz bilan o'rtoqlashdik. Misol uchun, mamlakatimizda yoshlarga e'tibor kuchaydi. Birgina "Yoshlar daftari" tizimi orqali eng chekka qishloqdagi yoshlarning ham muammosini yechish va qo'llab-quvvatlash yuzasidan yangi dasturlar qabul qilindi. Ehtiyojmand yigit-qizlarga yer berish, kredit ajratish, hunar o'rgatish, kasbga qiziqishini oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu tizimni joylarda samarali qo'llash uchun mahallada yoshlar yetakchilari tayinlandi. Hozir qariyb 10 mingga yaqin mahallaning har birida yoshlar yetakchisi bor. Bu vakil mahalladagi yoshlarning uyiga borib, ular bilan gaplashib, muammolarini yechish uchun ko'maklashadi.

TIL BILGAN — EL BILADI

Shu yil iyul oyi boshida ijtimoiy tarmoqlarda xitoylik talaba Da Zenxin (o'zbekcha ismi Tojiddin) Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida o'zbek tilini o'rganib, ilmiy izlanish olib borgani va dissertatsiya himoya qilgani haqida xabar tarqaldi. Yonatrofdagilarning "qoyil-ey", degan e'tiroflaridan ta'sirlanib, bizda Tojiddin bilan suhbatlashish istagi tug'ildi.

Da Zenxin oilali, bir farzandi bor. 1980-yil Xitoyning Shinjon muxtor tumanida tug'ilgan. O'rta maktab tahsilidan so'ng Koshg'ar pedagogika universiteti tillar fakultetining uyg'ur tilini o'qitish bo'limida, so'ng Janubiy Xitoy Jilin universiteti madaniyat fakultetining lingvistik (xitoy tili) magistraturasida tahsil olgan. 2005-2017-yillarda Chang Ji universitetining xitoy tili fakultetida xitoy tilidan dars bergan Da Zenxin 2017-2019-yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti bo'ldi. 2019-2023-yillarda Chang Ji universitetining xitoy tili fakultetida xitoy tilidan dars berib kelmoqda edi. 2023-yil sentabr oyidan boshlab Shanxay chet tillar universitetining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo tillari institutiga o'zbek tili o'qituvchisi sifatida ishga taklif qilingan qahramonimiz ayni paytda shu universitetda faoliyat yuritaypti.

Da Zenxin tahsil olgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni katta ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar ko'rinishida



ijro qilinmoqda. Zero, farmonda o'zbek tilining davlat tili va xorijiy til sifatidagi nufuzi, obro'sini ko'tarish, o'zbek tilini xorijiy mamlakatlarda o'qitish, o'rgatish ishlarini jadallashtirish va takomillashtirish yuzasidan qator vazifalar belgilab berilgan edi. Hujjatda 2030-yilga qadar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini amal-dagi 17 tadan 60 tagacha ko'paytirish, 2025-yilga qadar "O'zbek tilining do'stlari" klublari sonini 30 taga, 2030-yilgacha esa 40 taga yetkazish, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'zbek tilini o'rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish kabilor ko'rsatilgan.

— Da Zenxin tadqiqotini yozish jarayonida o'zbekcha-xitoycha lug'at tayyorladi, — deydi uning ilmiy rahbari, filologiya fanlari doktori, professor Saodat Muhamedova. — Bu lug'atdan 3 milliondan ortiq so'z va so'z birkimas, 3754 ta maqol joy olgan (lug'atning

umumiy sahifasi 3434 betdan iborat). Endi o'zbek tilini o'rganmoqchi bo'lgan xitoylik va xitoy tilini o'rganmoqchi bo'lgan o'zbekistonlik, o'zbek — xitoy tili bo'yicha tarjimonlar ushbu lug'atdan manba sifatida foydalanishi mumkin. Shuningdek, shogirdimning tadqiqot natijalaridan "O'zbek tilida neyning: me'yoriy-huquqiy asoslarni yaratish" mavzusidagi amaliy hamda "O'zbek tili va uning tarjimasini bilan bog'liq elektron va bank-moliya terminlarining ko'p tili lug'atlarini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihalarda foydalanilgan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Tadqiqot natijalari respublika va xalqaro anjuman materiallari to'plamlarida nashr qilindi. Xitoylik bo'lsa-da, o'zbek tili, madaniyati, an'analarga mehri baland, til o'rganish istagidagilarga yordam berayotgan Da Zenxiga o'z farzandimday mehrim tushib qoldi. Ilmiy darajali shogirdlarim soni yana bittaga ortdi. Tojiddin qiyosiy adabiyotshunoslik, bog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun "O'zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqot" mavzusida dissertatsiya himoya qildi.

— Men uyg'ur, qozoq, mo'g'ul, dun-gan va boshqa bolalar bilan birga o'ynab, o'qib katta bo'lganman. Do'stlarimning tillariga juda qiziqardim. Shuning uchun bakalavr bosqichida uyg'ur tili yo'nalishini tanladim. O'qishni tugat-gandan so'ng Shinjon Changji univ-ersitetida uyg'ur talabalarga xitoy tilidan dars berdim. Hozir ham menga chet tillarni o'rganish juda yoqadi, ayniqsa, maqollar, tarixiy hikoyalari, an'anaviy adabiyot va san'atga qiziqaman. O'z-bek tilini o'rganish uchun O'zbekistonga kelganimda, o'zim bilmagani va tushun-

tirib bera olmaydigan so'zlar ko'pligini anglab yetdim. O'zbekcha-xitoycha yoki xitoycha-o'zbekcha lug'atlar yo'q, tilni noldan o'rganish esa juda qiyin. Odamlarning o'zbek va xitoy tillarini o'rganishini osonlashtirish uchun o'zbekcha-xitoycha lug'at yozishga ahd qildim. Bu juda mashaqqatli va sabr-toqat talab qiladigan ish bo'lsa-da, nazarimda, juda foydali. Zero, qadim zamonlardan Xitoy va O'zbekiston Buyuk ipak yo'li bo'yab yaxshi qo'shni va do'st bo'lib kelgan. Har yili minglab o'zbekistonlik talaba Xitoyga boradi, lekin xitoylik talabalar O'zbekistonga o'zbek tilini o'rganish uchun kelmaydi. Shuningdek, Xitoyda o'zbek tilini o'rgatishga ixtisoslashgan o'qituvchilar yoki mutaxassislar juda kam. Vaholanki, hozirgi paytda Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar yanada kengayishi bilan xitoyliklar ushbu mamlakatga sarmoya kiritish, qurilish va savdo qilish uchun tobora ko'proq kelyapti. Bu borada ham til muhim ko'p-rikkidir. Shunday ekan, o'zbek tilini targ'ib qilish, ikki davlat o'rtasidagi almashuv

va o'zaro ishonchni mustahkamlash borasida ko'p ishlar qilishimiz kerak, — deydi qahramonimiz.

Da Zenxidan ilmiy ishiga nima uchun aynan maqollar mavzusini tanlagani so'raganimizda, "menga o'zbek maqollari juda yoqadi", deb javob berdi.

— Menimcha, maqol-matallar xalq tili va madaniyatining eng go'zal va hikmatli bo'lagidir. Ularda o'rganishga arzigulik jihlatlar ko'p. Masalan, "Pul bo'lsa, changalda sho'rva". Bu maqol pulning ahamiyatini ifodalaydi. O'zbeklar bu maqolni eshitganlarida, pul ko'p bo'lsa, qo'l kaftlari orasida — changalda ham sho'rva ichish mumkinligi haqida o'ylasa, xitoyliklar "shar-palar" va "tosh tegirmon" haqida o'ylashadi. Bu ikki mamlakatning madaniy, geografik muhiti, psixologik va ovqatlanish taomilidagi farqlar o'zaro bog'liq holatda ro'y beradi. Shuningdek, o'zbek va xitoy tillarida o'xshash yoki bir xil maqollar ham ko'p. Masalan, "Otning o'limi — itning bayrami", "Bugungi ishni ertaga qo'yma", "Qars ikki

qo'ldan chiqadi" kabi maqollar ikkala xalqda ham o'xshash ma'noda tushuniladi.

O'zbek maqollariga mehri baland Da Zenxinning ayni paytda Shanxay universitetidagi faoliyati ham a'lo. Til o'rgatish-dek xayrli ish yo'lida bor salohiyatini ishga solayotgan bunday zamonadoshlarimiz har qancha e'tiborini e'tirofga loyiq.

Iyul oyining birinchi o'n kunligida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetiga Shanxay chet tillar universiteti Markaziy Osiyo tili va adabiyoti fakulteti dekani boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurgandi. Delegatsiya a'zolari bilan suhbat davomida Shanxay chet tillar universitetida mavjud o'zbek tili bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalar uchun o'zbekistonlik mutaxassislar tomonidan yaratilgan "Xorijliklar uchun o'zbek tili" darsliklaridan foydalanish, o'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish masalalari muhokama qilindi. Mazkur universitet bilan tuzilgan shartnomaga asosan, o'zbek tili ta'lim yo'nalishi talabalar o'qish muddatining 3 yilini Xitoyda va bir yilini ToshDO'TAUda o'tkazishlari rejalashtirilgan.

Shanxay universitetiga har yili o'zbek tili bakalavr yo'nalishiga talabalar qabul qilinadi. Bu katta yutuq, albatta. Ularga saboq berishga kirishgan yuqori malakali ilmiy-pedagog kadr Da Zenxin bu faoliyati bilan ikki buyuk mamlakat va xalq o'rtasida do'stlik ko'prigi vazifasini o'taydi. Shuningdek, u o'zbek tili, madaniyati va adabiyotining Xitoydagi faol targ'ibotchisi va vakili bo'ladi, deb umid qilamiz.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



“— MEN UYG'UR, QOZOQ, MO'G'UL, DUNGAN VA BOSHQA BOLALAR BILAN BIRGA O'YNAB, O'QIB KATTA BO'LGANMAN. DO'STLARIMNING TILLARIGA JUDA QIZIQARDIM. SHUNING UCHUN BAKALAVR BOSQICHIDA UYG'UR TILI YO'NALISHINI TANLADIM.

MULOHAZA



Hozirgi zamon turkiy xalqlar so'z san'atining eng taniqli namoyandasi, benihoya yorqin siymo Ch.Aytmatov asarlari 128 mamlakatda 176 tilda, 100 milliondan ortiq nusxada bosilib chiqqan. Shu uch ko'rsatkichning o'zi uning jahon adabiyotida tutgan o'rni yuqori dalillaydi. Zero, dunyoda bunday natijaga erishgan ijodkor juda kam. Markaziy Osiyoda esa Aytmatov asarlari eng ko'p nusxada o'zbek tilida bosilgan, chunki bu mintaqadagi turkiy xalqlarning yarmidan ko'prog'i o'zbeklardir.

AYTMATOVNING ismi aslida qanday? yoxud "manqurt" emas, "mangqurt"

Aytmatov asarlari o'zbek dunyosiga kirib kelganiga esa oltmish yildan oshdi. Asil Rashidov, Ibrohim G'afurov, Suyun Qorayev va yana bir talay mutarjimlar ulug' adib asarlarini bizga tortiq etgan. Yana bir quvonchli tomoni — o'zbek aytmatovshunosligi paydo bo'lib, sezilarli ilmiy natijalarga erishdiki, o'z vaqtida buni yozuvchining o'zi ham e'tirof etgan.

Biz bugun hammaga ham ma'lum bo'lavermagan bir jihatga to'xtalib o'tmoqchimiz. Aytmatovdek adib ismini yozish va talaffuz qilishda bizda "kichkina" bir xatolik bor, nazariyda. Bu ot qirg'izlarda "Чыңғыз" (qozoqchada — "Шыңғыс") deb yoziladi. Ana shu "h" tovushi hozirgi imloda "ng" deb berilishi kerak (man — tong; menguz — tengsiz). Biroq ruslar bu harfni o'z tilida "ng" emas, "n" deb berishadi (Чыңғыз — Chingiz; Коңурбай — Konurbay). Qirg'izlar "Чыңғыз" deb talaffuz etadigan ism bizga ruscha shaklda o'tib, Chingiz deb yoziladigan bo'lib qoldi, hatto ko'plar undagi ikki unli harfni ham "yi" o'rni "i" deb talaffuz qiladi.

Darvoqe, bizda "i" harfi "i"ni ham, "yi"ni ham ifodalab keladi: "kishi"ni ham, "qizi" (қызы)ni ham "i" bilan yozamiz, imlomiz shunaqa. Shuning uchun ismdagi unli tovushni "i" tarzida berilishiga e'tiroz bildirish nojoiz. Biroq qirg'iz tilidagi "tan" so'zi o'zbek tilida "tong", "aityn" so'zi "aying" deb berilgan holda, Aytmatovning ismiga kelganda biz "h"ni ruslar kabi "n" tarzida yozib kelyapmiz va buning ta'sirida adib ismini og'zaki tarzda ham "Chingiz" deb aytyapmiz. Bu "kelin" (bu yoqqa keling), degan kalimani "kelin" (kelinchak) ga aylantirish kabi yangilishdir.

Afsuski, qo'shni turkiy tillardan kirib kelgan so'zlardagi "h" harfini, biz ham ruslar kabi "n" qilib o'laymiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "mang" — "ma" (ol) so'zi hurmat va ko'plik shakli deb izohlangan, boshqa ma'nosi keltirilmagan. Holbuki, aksar o'zbek shevalarida qo'nying miyasiga qurt tushsa, "mang bo'lib qolibdi", deyiladi. Chingiz og'aning asari sharofati bilan o'nlab tillarga



Zuhriddin ISOMIDDINOV, O'zbekiston — Qirg'iziston do'stlik jamiyati raisi

SAFAR TAASSUROT LARI

QAQRAGAN SAHRONI GULLATGAN RA'NO



Xosiyat BOBOMURODOVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi

"Qirg' yigitni tiz cho'ktingan Oybachin"

Yaqindagina "O'rtacho'l malikasi"ning taqdimoti bo'lib o'tibdi. Ra'noxon Qiziltepaning faol ayollaridan, Valiyevaning hayotini yaxshi biladigan Mashhura Karimova bilan birga kelgan ekan. Juda maroqli uchrashuv bo'libdi. Talabalarning savollariga javob berishibdi. Muloqotni tugatay deyshisa, hech kim davrani tark etgisi kelmas emish. Ra'no Valiyeva bir gapni boshlasa, tugatmasa, deysiz. U nafaqat yerning tilini, odamlarning yuragiga yo'l topishni ham biladi. So'zlarining oxirini she'r yoki odamning etini jimiratadigan fikrlar bilan yakunlaydi. Shoir ham, notiq ham o'zi.

Doston (deyishga arzisa)ni institut o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori Abdulhamid Xolmurodov tushunari va sodda tilda tahlil qilib berdiki, men ham ko'p narsalarni angladim. Domla qahramonimni Oybachinga mengzadi, u ko'kamanni yerga bosib, og'zidan qonini keltirgan bo'lsa, Ra'no qirg' yigitni tiz cho'ktingan, dedi.

Kafedra dotsentlari Munira Xudoyorova, Nasiba Tursunova, Zebiniso Ahmedova asardagi qahramonlar to'qima obraz emas, hayotda biz bilan yonma-yon yashayotgan odamlar ekani, bular o'z kechinmalari, fikr-u o'ylari, yashash tarzi bilan tarixga muhranishi haqida aytishdi.

Talaba yigit va qizlar jasorat, yonib yashamoq, adolat uchun kurashmoq, vatanga muhabbat tuyg'ularidan saboq olgani haqida so'zlashdi. Shoir va notiq Bahriddin Sadriddinovning muloqotlari mohirona olib borishi, hech kimni e'tibordan chetda qoldirmasligi, navoiylik ijodkorlar, xalqning mashhur odamlari haqida topib so'zlashi meni suyuntirdi. Nazdimda, u yaqinlarda ham xatirchilik yoshigina shoir bola edi. Qachon ulg'ayganini sezmay ham qolibman. U muallif va qahramon bir-biriga mos, shiddatkor, mardonva ayollar, ikki sheryurak dostonda to'qnashgan, deb ko'nglim uchun lutf qildi. So'zining oxirida dostonidan she'r o'qib berdi, talabalarni maridlikka chorladi:

Ko'p qayg'urma, sil bo'lasan, Ko'p elarni, qul bo'lasan, Gaping yutib jim bo'lasan, Qo'rsang — aytm, aytisang qo'rqma.

"Bevaqt yomg'ir yog'sa, men qalqon bo'ldim..."

Navoiy konchilik va axborot texnologiyalari universitetidagi uchrashuvimiz darajini eshitib, qo'shni mahalladan ham ayollar kelibdi. Ular adabiyotga, she'riyatga qiziqishar, so'z sehriga ishonishar ekan. Oliyohdagi Ra'no Valiyevani ko'p marta uchrashuvlarga chaqirgan, hatto unga faxriy professor unvonini bergan. Arziydi-da, hayot haqida, maxonat haqida, yengilmaslik haqida Ra'nonoxim ularga saboqlar berishga qodir. Kengash to'g'ri qaror qabul qilibdi. Qahramonimning aytgan bir gap bor: "Mening tanam yashashdan horisa, orzulari tugamaydigan, yurtini va xalqni sevadigan yuragim bir yosh vujudga ko'chib o'tsaydi. Amalga oshmagani niyatlarimni oxiriga yetkazsaydim..."

O'tgan yili yozilgan, Yozuvchilar uyushmasining "Ayolga ehtiroim" ko'rik-tanlovida birinchi o'ringa sazovor bo'lgan "O'rtacho'l malikasi" nomli dostonim qahramoni — Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi "Valiobod" fermer xo'jaligi raisi Ra'no Valiyevani izlab bormoqchi bo'ldim. Yozuvchilar uyushmasining Navoiy viloyati bo'limi rahbari Bahriddin Sadriddinov rejalarimizdan xabardor edi, uchrashuvlar belgilab qo'ygan ekan. — Ra'no opani o'zingiz taklif qilasiz, — dedi Bahriddinjon. Qo'ng'iroqlashib, vaziyatni bilsam...

Shunday da'vatkor so'zlar bilan yuraklarga o't soladi bu ayol. Ular doston haqida men taqdimotga kelmasam ham bilishar ekan. Ra'no Valiyeva haqidagi afsonaga o'xshash haqiqatlar yoshlari hayratga solarkan. Talabalardan biri dostonidan parcha o'qidi:

Na qilsin, Ra'no ham ishqqa nishondir. Yonib yotgan qalbi, siyrati bilan. Vujudiga sig'mas qirg'a joni-yu Tor qishloqqa sig'mas g'ayrati bilan.

O'rgangan yiqilsa yig'lamaslikka, Turib changlarini tashlaydi qoqib. G'amning qarshisiga chiqadi tikka, Quyoshga boradi olovlar yoqib.

Uning quyoshga qarab ko'ksidagi olov bilan borishi yoshlarga ilhom berarkan. Savol-javoblardan so'ng talabalarga ayt-dim:

"Dehqon zoti borki, kuzning qarshisida shoshib qoladi. Qarang, bugun yomg'ir tomchilay boshladi. Ra'no opangiz birinchi terimdayoq, ya'ni 23-avgust kuni 31 gektar yerda yetishtirilgan paxta rejasini 100 foizdan oshirib bajardi. O'zbekiston mustaqilligini g'alaba bilan nishonlash unga odat tusiga kirgan (talabalar qarqasq chalishdi).

Ammo ikkinchi terim shundaygina turibdi, dalalar oppoq. Kuz osmoni xo'mraygan. Agar men ham etak osib, safgingizda tursam, dam olish kuni yordamga boraylik, desam, hasharga birga borarmidinglar, yoshlar? Birovlar talabalar paxtaga chiqdi, deb jar sorsa, jim turarmidinglar? Cho'lda odam yo'q-ku, paxta bor, borarmidinglar, bolalar?"



(Zaldagilar g'imirlab qolishdi. "Boramiz" deganlardan indamay turganlar ko'proq bo'ldi).

"Bizning davrimizdagiday qishgacha paxta terish yo'q endi. Hech bo'lmasa, dam olish kuni bir kun hasharga borish mumkinmi? Agar bu holni faxriy professoringiz Ra'no Valiyeva ko'rsa, nima derkin, bilimdim. Ammo odatiga ko'ra, hech kimdan hech nima iltimos qilmaydi. So'z berdimi, bajara-di. Paxtasini tuproqqa qorishitmaydi".

Talabalardan biri dostonidan Ra'noning so'zini aytib berdi. Ko'nglimiz joyiga tushdi:

Bevaqt yomg'ir yog'sa, men qalqon bo'ldim, Kuchi tanga sig'mas bir vulqon bo'ldim, Hosil mo'l bo'lganda shoh, sulton bo'ldim. Dalamdan ketmadim, umrbod dehqon bo'ldim.

O'rtacho'lda kechgan ochiq dars zavqi

Oppoq bulutlardek ko'pirib turgan paxtalarni ko'rganingda etakni belingga mahkam bog'lab, egatlar oralab javlon uringing keladi. Biroq uchrashuvga kechikmay borishimiz zarur. Uchrashuvdan so'ng paxta



terib aybimizni yuvamiz dedik-da, O'rtacho'lga shoirilar hamrohligida yo'lga tushdik. Borib hayronlar qoldik. Bizni Ra'no Valiyeva boshchiligida qirg'cho'g'li Yangiyo'lti nomli cho'l mahallasidagi 34-maktab o'quvchilari, o'qituvchilari qo'llarida gul bilan kutayotgan ekan. Men paxta terishga xalal bermayin, deb jonim halak, bular esa parvoyi palak.

Dalalarning toza hidi ufurgan, ko'zlarida olovni, mehri chiqqan, yoqimli Ra'nonmi bag'rimga bosdim. U ham. Ko'rishmaganimizga ancha bo'libdi. Bir-birimizning samimiy lutfimizni qanchalar sog'inibmiz.

Hovuz bo'yidagi supaga o'rindiqlar qo'yilib, mo'jazgina sahna yasaliydi. Birpasda mashinalarda Qiziltepa tumani ma'naviyatchilari, shoir Istam Hasanov ham kelib qo'shildi davraga. Buyam kamday, bir necha yengil mashinadan birin-ketin tushib, Toshirabot ayollari kelib qo'shildi. Cho'lignini ununayotgan dalalar ham bir odam ko'rganday bo'ldi-da o'ziyam.

Yaqinda Ra'no Valiyevaning qishlog'ida ham kitob taqdimoti bo'lgan ekan. Davrani ko'p yillar tuman ayollari sarkori bo'lgan, hayotning achchiq-chuchugini Ra'no bilan birga to'gan mehnat faxriysi Mashhuraxon Karimova boshqargan ekan. Tanishtiruvlardan so'ng so'z navbatini Mashhuraxon oldi. Gapiyam qiyib tashlarkan.

— Aziz yoshlar, qanday qilsak, Ra'no Valiyeva bo'larmiz, deb o'yab turibsiz. Bugungi suhbatimizni "O'rtacho'ldagi ochiq dars", deb atagan bo'ldim. Ba'zi xonadonlarga borsangiz, odamlar bir parcha tomorqasiga qaramaydi. Ra'no opangiz cho'lni jannatga aylantirdi. Mana shu joy-

degan qo'ng'iroqlarga doimo mehri, yordami tayyor. Dalasiga qanday mehnat qilsa, odamlarga ham shunday mehnat qiladi. U bizing qahramonimiz!

Shoirlar she'r o'qidik, maktab o'quvchilardan Sevinch Sanaqulova, Sabina Mahmudova, Ro'ziyona Umirzoqov yoddan o'qigan she'rlar davraga fayz bag'ishladi. Ra'no o'z dalasiga sira xiyonat qilmagan. Ayni chog'da ham bizni kengliklar sari boshladi. Ijodkorlar, mahalladan tashrif buyurgan onaxonlar bilan paxta dalasiga yo'l olib, oppoq ochilib yotgan chanoqlarni ko'rdik. Jamoa bo'lib ishlashning, hasharining zavqi boshqacha-da.

Mashhura tashabbusni qo'lga olib, ashulani boshlab yubordi. So'ng xalq shoirasi Oydin Hojiyeva va Ibrohim G'afurovning tashrifini eslatdi. Ketar chog'larida Ibrohim aka shu fermer Ra'noni bir bag'rimga bosmadim-da, deb lutf qilgan. Oydin opa chimirilib, gapingiz qursin-a, degan. Bu mos va beg'ubor juftlikning samimiy hazilidan hamma kulgan ekan. Biz ham kulishib esladik.

"Gektaridan 40 sentner paxta olmagani — dehqon emas, degan Prezidentimiz". Ra'noxon bu gaplarni ko'p takrorlaydi va shu so'zlarga amal qiladi. 70 gektar yerga bug'doy ekib, goho suvsizlik qiynaganiga qaramay, haqiqiy dehqonning ishini qildi. Ikkinchi terimni eson-osmon oxiriga yetkazsa, paxta hosili 45 bilan 50 sentnerning o'rtasida bo'ladi.

Terim tugab, hamma uy-uyiga tarqaldi. Ra'no va men tun bilan qoldik. O'sha hovuz bo'yidagi shiyponda. Rosa gaplashib yotdik. Ra'no cho'lga birga kelgan 12 erkakning oilalariga mas'ul biladi o'zini. O'qishdagi bolalariga kontrakt to'laydi, to'ylariga yordam qiladi. Shiypondagi yeb-ichishlar, kun kechirish, tuzdan tortib gugurtgacha, qo'sht-u yog'gacha, asal-u tuxumgacha, tandimon-u patirgacha muhayyo qiladi. Paxta va bug'doydan tashqari tariq, makkajo'xori, poliz ekinlarining hamma turini ekadi. Kurka, tovuq, baliq, mol boqishadi. Qo'li shirin oshpaz opalar uch mahal mazali, kuchli taomlar tayyorlaydi. Ishchilarim kuchli va sog'lom bo'lishlari kerak, oilasining moddiy ta'minoti yaxshi bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

"Cho'l sharoitida yerdan rizq undirish mashaqqat. Yerni silash, erkalash kerak, to'ydirish kerak, yidirish kerak. Yerning yuragi bor, sevganingi biladi", deydi.

"Farzandim bo'lmasa, xalqim bor, xalqimga suyanaman. Yiqilsam, oldingacha yiqilaman. Mening irodami sinagan vatanimga, zamonamga rahmat! Hayot — kurash maydoni. Kurashishni, g'olib kelishni o'rgandim. Paxtaga sepilgan og'ular mening 18 yoshimni zaharladi, ona bo'lish baxtidan ayirdi. Ammo xalqimdan, orzularimdan ayirolmadi", deydi.

Uning sezgirligi, o'ng kelgan tushlari, aytganlari sodir bo'lishi meni hayron qoldiradi. Siz Ra'no valiyisiz, deymen. Hech bo'lmaganda, Ra'no Vali deylik. U jilmayib, she'r o'qiydi:

Dalam berdi menga toza nonimni, Boshiga ko'tardi cho'ng ketmonimni, Men ham ayamadim undan jonimni, Men changin chiqardim, u-chi, dong'imni.

Umring o'tganin sezmay qolibman, Elim boy bo'lsin deb, yelday yelibman. Har bahor o'zimni o'nglab, shaylanib, Har kuzda dalamga boqib, to'libman.

Uy qilsam, yelkasim tutdi mardona, To'y qilsam, rizq tutib bo'ldi parvona. Uyimsan, to'yimsan, yo'g'-u borimsan, Sevmayin bo'lurmi seni, ey, Ona!

Diydordan ko'nglim to'lib, ortimga qaytdim. Qahramonim yanayam kuchga, shiddatga to'libdi. Dostonim tugamabdi. Iloho, momolara duo qilganidek, chinakam qahramon bo'lsin!